Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320580

ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

3. Azibayev, A. (2023) The impact of technology and human capital on economic growth: literature review. Экспортный потенциал наманганской области: векторы развития и новые возможности, 40-46
4. Acemoglu, D. (2009). Introducing to modern economic growth. New Jersey: Princeton University Press.
5. Chatzarakis, N., & Persefoni., D. (2021). The Dynamics of Capital Accumulation in Marx and Solow. Structural Change and Economic Dynamics.
6. Capital on Economic Growth: The Case of Mexico. Journal of the Knowledge Economy, 660–675.
7. Kulikov, D. (2019). The generalized Solow model. Journal of Physics.

TADBIRKORLIK SUB'YEKTLARININI MAHALLIY BYUDJYETLARDAGI

Jo'rabek Boltaev
Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti katta o'qituvchisi
jo'rabek.boltayev@tsue.uz

Annotatsiya: Bugungi kunda kichik biznes, shuningdek xususiy tadbirkorlik uchun davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishning muhim omili sifatida uning o'rnini oshirishga katta e'tibor berilmoqda.

Kalit so'zlar: Soliq, soliq islohotlari, soliq ma'murchiligi, raqamlashtirish, soliq qarzi, soliq stavkasi, shaxsiy kartochka, yuklama

Mamlakatimiz hozirgi rivojlanish bosqichida milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlanishi uchun "Soliq yukini kamaytirish va coliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish vazifasi belgilab berilgan".

So'nggi yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan tadbipkoplik sub'ektlarining mamlakatda yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, kambag'allikni oldini olish, aholi daromadlilik darajasini oshirish, farovonligini ta'minlash va infratuzilmani rivojlantirish muhim omillari sifatida yuqori va salmoqli natijalarga ega bo'lmoqda.

1-jadval

Tadbirkorlik sub'ektlarining yangi tashkil etilgan ish o'rinlaridagi ulushi[41]

Кўрсаткичлар	2014 йил	2015 йил	2016 йил	2017 йил	2018 йил	2019 йил	2020 йил	2021 йил	Ўзгариши (+) кўпайиши ёки (-) камайиши
Юридик шахсларда янги ташкил этилган иш ўринларинг сони	411 701	314 262	322 657	404 153	551 379	563 114	573 234	592 304	180 603
Шу жумладан:									
Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликда	302 005	253 546	253 880	262 212	363 270	372 549	353 218	321 654	19 649
Фоиз ҳисобида	73,0	80,7	78,7	64,9	65,8	65,1	64,7	63,5	-9,5
Банд аҳоли сони, минг киши	12 818,4	13 058,3	13 298,4	13 520,3	13 273,1	13 145,3	12 982,1	12 876,3	455

[41] www.stat.uz – маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси.

Published: 23.12.2024
Cite this article: Jo'rabek Boltaev (2024). Tadbirkorlik sub'yektlarinini mahalliy byudjyetlardagi. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320580
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Yuqoridagi 1-jadval ma’lumotlarga nazar tashlasak, mamlakatimizda 2014-2021 yillarda tashkil etilgan yangi ish o‘rinlarida tadbipkoplik sub’ektlarining salmog‘i keltirib o‘tilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatib o‘tadiki, 2014 yil yuridik shaxslar tomonidan tashkil etilgan yangi ish o‘rinlari soni 411 701 tani tashkil etgan. Ushbu yo‘nalishda 2015 yil 314 262 ta, 2016 yil 322 657 ta, 2017 yil 404 153, 2018 yil yakunlariga ko‘ra 551 379 tani tashkil qilgan bo‘lsa 2019 yil 563 114 tani, 2020 yil 573 234 tani, 2021 yil 592 304 ta ish o‘rni yaratilgan yoki. Solishtirib ko‘rganimizda 2021 yil natijalari 2014 yilga nisbatan mamlakat miqyosida yuridik shaxslar tomonidan 180 603 ta yangi ish o‘rni yaratilgan.

Iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyat olib borayotgan biznes sub’ektlari tomonidan yaratilgan yangi ish o‘rinlarining salmog‘i 2014 yil 302 005 ta, 2015 yil 253 546 ta, 2016 yil 253 880 ta, 2017 yil esa 262 212 ta, 2018 yil 363 270 ta, 2019 yil 372 549 ta, 2020 yil 353 218 ta, 2021 yil esa 321 654 tanini tashkil etdi. Tadbipkoplik sub’ektlari tomonidan 2021 yil 2014 yilga nisbatan 19 649 ta ko‘p yangi ish o‘rinlari tashkil etilgan.

Mamlakatimiz hududlarida tadbipkoplik sub’ektlari faoliyatining rivojlanish yo‘nalishlari bir xil emasligi ayon bo‘lmoqda. Bunga asosiy sabab sifatida hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi turlichaligi, ushbu hududlarda tadbipkoplik sub’ektlari o‘z faoliyati rivojlanishi uchun yaratilib berilayotgan imtiyozlardan to‘liq xabardor bo‘lmagan.

Olib borayotgan tahlillarimiz natijasida davlat byudjeti daromadlarining o‘zgarish tendentsiyalarini quyida jadval ma’lumotlarida ko‘rishimiz mumkin.

2-jadval ma’lumotlarini tahlil qilish jarayonida amin bo‘ldikki davlat byudjetining daromadlar qism mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulotga nisbatan 2021 yil yakunlariga qaraganda 2017 yilgi natijalariga nisbatan 4,0 foizga oshgan.

Tahlillar natijasida bevosita coliqlar bo‘yicha tushumlar miqdorining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog‘i 2021 yilda 2017 yilga nisbatan 12,6 foizli punktga, YaIM dagi salmog‘iga nisbatan 3,9 foizli punktga o‘sish ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan.

2-jadval

Davlat byudjeti daromadlari(davlat maqsadli jamg‘armalarsiz)ning o‘zgarishi

Кўрсаткичлар	2017 йил			2018 йил			2019 йил			2020 йил			2021 йил		
	млрд.сўм	Бюджет даромадлари улуши, фоизда	ЯИМдаги улуши фоизда	Млрд.сўм	Бюджет даромадлари улуши, фоизда	ЯИМдаги улуши фоизда	Млрд.сўм	Бюджет даромадлари улуши, фоизда	ЯИМдаги улуши фоизда	Млрд.сўм	Бюджет даромадлари улуши, фоизда	ЯИМдаги улуши фоизда	Млрд.сўм	Бюджет даромадлари улуши, фоизда	ЯИМдаги улуши фоизда
ЯИМ	**249136,4**	-	**100**	**407514,5**	-	**100**	**524 230**	-	**100**	**653 546**	-	**100**	688 936	-	
Даромадлар – ЖАМИ	49681	**100**	**19,9**	**79099,1**	**100**	**19,4**	**112165,4**	**100**	**21,5**	132938,0	**100**	**19,7**	**164 681,0**	**100**	**23,9**
Бевосита солиқлар	11539,4	23,2	4,6	15656,2	19,8	3,8	31 678,8	28,2	6	45206,9	34,0	6,2	58 930	35,8	8,5
Билвосита солиқлар	26133,2	52,6	10,5	41280,4	52,2	10,1	46 427,2	41,4	9,6	46 428,4	34,9	8,9	56 292	34,2	8,2
Ресурс тўловлари ва мулк солиги	6867,4	13,8	2,8	12663,4	16,0	3,1	19680,7	17,6	3,7	21 257,0	16,0	3,2	23 036	14,0	3,3
Бошқа даромадлар	5141	10,3	2,1	9499,1	12,0	2,3	14 380,7	12,8	2,1	20 045,8	15,1	1,3	26 423	16,0	3,8

Tahlillar jarayonida bilvosita coliqlar bo‘yicha soliq tushumlarining davlat byudjetining daromadlari tarkibidagi salmog‘i 18,4 foizga, yalpi ichki mahsuloti qaraganda 2,3 foiz hajmga kamaygan. Ushbu yillar bo‘yicha tahlil qilganimizda resurs to‘lovlari hamda mol-mulk soliqlari bo‘yicha tushumlari miqdori byudjet daromadlari

tarkibidagi salmog‘i 0,2 foizga, yalpi ichki mahsulotga qaraganda 0,5 foizga o‘sish ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan.

Davlat byudjetining boshqa daromadlarining tahlil qilinayotgan yillar mobaynidagi salmog‘i 5,7 foizga, mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulotga nisbatan olsak 1,7 foizga o‘sgan.

Mazkur yo‘nalishda amalga oshirilgan islohotlar doirasida mahalliy byudjetlar miqyosidagi fiskal siyosatni quyidagi yo‘nalishlarida tashkil qilish taklif qilinadi:

Mahalliy byudjetlarini subventsiyadan chiqarish hamda ular yuqori byudjet ajratmalariga bo‘lgan tobeligini kamaytirish, shu bilan birgalikda hududlarning rivojlantirish yo‘nalishlarini ishlab chiqish.

Mahalliy byudjetlarning daromadlarini oshirish uchun doimiy ravishda qo‘shimcha rezervlarni aniqlash va ularni soliqqa tortish.

Byudjet daromadlari va xarajatlari shaffofligini ta’minlash yuzasidan jamoatchilik nazoratini jalb qilish.

Mahalliy byudjetlar daromadlar bazasini mustahkamlash hamda xarajatlarining tasdiqlangan parametrlarini o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlash yuzasidan hokimliklar, hududiy soliq xizmati organlari javobgarligini kuchaytirish.

Adabiyotlar ro‘yxati:

Адабиётлар рўйхати:

1. Смит А. Исследования о природе и причинах богатства народов. Пер.с англ. М.: 1962 г.-408с. https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/ Econom/smit/05.php.

2. Сэй Ж.-Б. Трактат по политической экономии. М., 1996. [Электронный ресурс] // URL: http://geum.ru/next/art-317992.php.

3. Шумпетер Й. А. Теория экономического развития. М.: Прогресс, 1982. [Электронный ресурс] // URL: http://socioline.ru/book/j-shumpeter-teoriyaekonomicheskogo-razvitiya#attachments.

4. Жумаев Шухрат. Ўзбекистон Республикасида солиқ маъмурчилиги ва солиқ тизими стратегиясини такомиллаштириш масалалари // Экономика и социум.- 2024.- №4(119) (30.04.2024)

5. Жумаев , Ш. (2024). Ўзбекистонда Республикасида солиқ тўловчиларга хизмат кўрсатиш тизимини янада такомиллаштиришга масалалари . Страховой рынок Узбекистана, 1(7), 68–69.

6. Жумаев, Ш. (2024). Ўзбекистон Республикасида солиқ маъмурчилигини такомиллаштириш. Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil, 2(4), 368–374. https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss4-pp368-374

7. Sh. Jumaev. (2024). On improving the methodology of tax administration of large taxpayers in the Republic of Uzbekistan. Gospodarka i innowacje. Economy and Innovation. Volume: 48 | 2024. 330-336.

ПИЁЗ ЕТИШТИРИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИ ВА УНИ ОШИРИШ

Садикова Ш.О.
Таянч докторант, ГулДУ

Аннотация: мазкур мақолада муаллиф томонидан мамлакатимизда пиёз етиштиришнинг иқтисодий самарадорлиги, унинг кўрсаткичлари, самарадорликни ошириш йўллари, унга таъсир этувчи омиллар ва амалда эришилган самарадорлик холати баён қилинган ҳамда керакли хулосалар берилган.